



FALSAFANING MOHIYATI VA JAMIYAT TARAQQIYOT ROLI

Usmanova Shohsanamxon

Igamberdiyev Doniyorbek

Andijon davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchilari

Komiljonova Shohista Komiljon qizi.

Abdulkakimova Tursunoy Xayrullo qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Fizika yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada falsafaning ontologik va gnoseologik mohiyati, uning inson taffakuri va ijtimoiy ong shakillanishidagi beqiyos o'rni tahlil qilinadi. Falsafa jamiyat taraqqiyotining intellektual va ma'naviy asosi sifatida qaralib, uning ijtimoiy qadryatlarni shakillantirish ilm fan va madaniyat rivojiga ta'siri chuqur ilmiy yondashuv asosida yoritildi.

Kalit so'zlar: Falsafa, jamiyat taraqqiyoti, inson huquqlari, ijtimoiy adolat, tanqidiy taffakur, axloqiy qadryatlar

Kirish. Insoniyat tarixining barcha bosqichlarida falsafa jamiyat tafakkurining chuqur ildiz otgan asosiy shakli sifatida namoyon bo'lgan. U faqatgina nazariy bilimlar majmui bo'lib qolmay, balki insoniyatning borliq ong haqiqat va qadryatlar haqidagi



fundamental savollariga javob izlashga qaratilgan tizimli va tanqidiy tafakkur shaklidir. Falsafa inson tafakkurining eng yuksak mahsuli bo'lib, u borliq ong qadryat va jamiyatga oid eng muhim savollarga chuqur nazariy javob izlaydi. Tarixiy jihatdan olganda har bir sivilizatsiyaning taraqqiyotida falsafaning tutgan o'rnini beqiyos bo'lgan- u ijtimoiy ongning yetakchi shakli sifatida ilm-fan san'at siyosat va huquq tizimlarning shakllanishiga poydevor bo'lib xizmat qilgan. Falsafa nafaqat voqelikni tushuntirishga balki uni tanqidiy tahlil qilishga insoniyatning kelajagini ongli ravishda belgilashga chorlaydi. Ayniqsa jamiyat taraqqiyotining murakkab dinamikasini anglashda va uni barqaror yo'nalishga solishda falsafaning metodologik va g'oyaviy yondashuvlari alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois mazkur maqolada falsafaning ontologik va epistemologik mohiyati, shuningdek uning jamiyat taraqqiyotiga ko'rsatadigan ta'siri chuqur ilmiy asosda tahlil qilinadi. Falsafa qadimdan beri insoniyat tafakkurining eng murakkab va mukammal shakli sifatida jamiyat rivojiga chuqur ta'sir ko'rsatib keladi. Uning mohiyati borliq va ong haqiqat va qadryat, inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab o'zaro aloqalarning tahlil qilishdan iborat bo'lib, bu yondashuv ijtimoiy taraqqiyotning g'oyaviy va metodologik asoslarini belgilab beradi. Falsafaning bilish nazariyasi va borliq haqidagi ta'limot jihatlari ijtimoiy ong shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bilimning mohiyati, haqiqat me'zonlari aniqlashga bo'lgan falsafiy urinishlar fan, texnologiya va ijtimoiy institutlarning vujudga kelishida muhim rol o'ynaydi. Jamiyat tarixida har bir taraqqiyot bosqichi muayyan falsafiy qarashlar dunyoqarash tizimlari bilan uyg'unlashgan. Masalan, uyg'onish davri Yevropasida hukm surgan humanistik falsafa nafaqat san'at va adabiyotda inqilob yasadi, balki ijtimoiy ongning erkinlik, shaxsiyat tafakkur mustaqilligi kabi yuksak qadryatlarga asoslanishiga olib keldi. Ayniqsa klassik nemis falsafasida shakllangan dialektik tafakkur ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilishda tamoyil sifatida xizmat qilgan. Falsafa ijtimoiy hayotda faqat nazariy doirada qolmay balki amaliy yondashuvlarni ham shakllantiradi. U jamiyatda hukmron bo'lgan mafkura siyosiy qarashlar va qadryatlar tizimini asoslash orqali tarixiy voqelikning mazmuni anglashga xizmat qiladi. Aynan shuning uchun falsafa bu faqat



mavhum fikrlar yig’indisi emas, balki jamiyatni o’zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan kuchli ijtimoiy vositadir. Shu boisdan Karl Marks falsafani faqatgina dunyoni izohlash emas, balki uni o’zgartirish vositasi sifatida ko’rgan. Zamonaviy davrda esa falsafa fanlararo integratsiya sharoitida o’zining universal metodologik vazifasini yanada kengaytirmoqda. Texnologik taraqqiyot sun’iy intellekt ekologik muammolar ijtimoiy adolatsizlik va global muvozanatsizlik sharoitida falsafa insoniyat oldidagi murakkab muammolarni hal etish uchun gumanistik va tanqidiy tafakkur asoslarini taklif etadi. Ayniqsa axloqiy mas’uliyat, adolat, erkinlik va barqaror taraqqiyot kabi konseptlarning chuqur falsafiy talqini ijtimoiy barqarorlikka erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xulosa. Falsafa jamiyat taraqqiyotining nazariy va amaliy yo’nalishlarini belgilovchi asosiy intellektual kuchlardan biridir. U insoniyat tafakkurining yuksak shakli sifatida nafaqat borliq va ongning mohiyatini anglashga xizmat qiladi, balki ijtimoiy hayotda ma’naviy- axloqiy mezonlarni belgilash, tarixiy jarayonlarni tahlil qilish hamda kelajak taraqqiyotining g’oyaviy asoslarini yaratishda hal qiluvchi rol o’ynaydi. Har bir jamiyatning madaniy va ijtimoiy yuksalishi uning aqliy-ma’naviy salohiyatiga ya’ni falsafiy dunyoqarash darajasiga bevosida bog’liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdiraxmonov. K. Falsafa, o’quv qo’llanma. Toshkent, 2020
2. Nazarov, Q. N. Falsafa asoslari. Toshkent, 2019
3. G’afurov B, Abdullayev, M. Falsafa. Toshkent, 2018